I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yil yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 57 274,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan o‘sish sur‘ati 105,2 foizga teng bo‘ldi.

2023- yil yanvar- sentabr oylarida YAHM deflyator indeksi 110,8 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **53 880,4** ming so‘mni tashkil etdi.

Yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

	mlrd. so‘m		*o‘sish sur‘ati, % da*
	2022- yil	*2023- yil*	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**49 148,5**	**57 274,8**	**105,2**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	48 139,1	56 415,8	105,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	1 009,4	859,0	105,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**48 139,1**	**56 415,8**	**105,2**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	6 447,5	7 754,4	103,6
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	35 552,6	41 460,0	105,8
Sanoat	33 735,6	39 397,6	105,8
Qurilish	1 817,0	2 062,4	106,2
Xizmatlar	6 139,0	7 201,4	103,4

davomi

	mlrd. so‘m		*o‘sish sur‘ati, % da*
	2022- yil	*2023- yil*	
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 430,2	1 688,8	105,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	830,7	940,5	101,9
boshqa xizmatlar	3 878,1	4 572,1	102,9

Yanvar- sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)

2023- yilning yanvar- sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur‘atiga ijobiy ta‘sir, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlari (105,4 %), boshqa xizmatlari (102,9 %), qurilish (106,2 %), sanoat (105,8 %) va qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi (103,6 %) tarmoqlaridagi yalpi qo‘shilgan qiymat hissasiga to‘g‘ri keldi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 26,7 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi va bu ko‘rsatkich 2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,8 foizga ko‘paydi.

2023- yil yanvar- sentabr oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi, (% da)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o‘sish sur‘atlari